

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “SHARQONA HOVLIGA EGILAR HILOL” SHE’RI TAHLILI

Nurmaxmatova Furuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg XX asr o‘zbek adabiyotida o‘zgacha ruh va ovoz bilan ajralib turgan ijodkordir. U millati rus bo‘lishiga qaramasdan, butun hayot va ijod yo‘lini O‘zbekiston bilan bog‘lab, ham ma‘nan ham ruhan shu zaminning farzandiga aylangan namoyonda hisoblanadi. Faynberg nafaqat ikki xalq-o‘zbek va rus xalqlari- o‘rtasida madaniy ko‘prik sifatida beminnat xizmat qildi, balki inson qalbiga xos bo‘lgan nozik kechinmalarni sharqona ruhda, milliy tabiat manzaralari va falsafiy qarashlar bilan uyg‘unlashtirib tengsiz go‘zal asarlar yaratdi. Uning asarlari yurtlar, dengizlar osha butun dunyoga tarqaldi. Garchi shoir hozir tirik bo‘lmasa ham butun dunyo bo‘ylab uning ijodiga muxlis minglab ,millionlab kitobxonlar uni doim xotirlaydilar, har bir asarini qo‘ldan qo‘ymay o‘qiydilar. Uning she‘rlarida, nasrida keltirilgan milliy manzaralar ham shoir asarlari bilan o‘sha uzoq yurtlarga yetgan, butun olamga o‘zbek xalqi haqida ajoyib tasurotlarni ulashgan. Faynberg ijodining muhim xususiyatlaridan biri bu-Vatan va ona makon tuyg‘usi. O‘zbekistonning serquyosh vohalari, keng dalalari, tog‘lar va sharqona hovlilar jilosi, fayzi haqida alohida mehr bilan yozadi. Bu manzaralar faqat tabiat tasvirini emas, inson ichki olamini ham ko‘rsatib beradi. U o‘z asarlarida tabiat manzaralaridan badiiy-ramziy qurol sifatida foydalanadi. Bu ta‘kidlanga qurollar esa o‘z navbatida inson ruhiy holatini, qalbdagi hukmron sokinlikni va yoki iztirobni tashqi olam bilan uyg‘unlashtirib ifodalaydi. Shoir o‘z ijodiyotida inson va tabiat o‘rtasidagi hamohanglikka alohida e‘tibor qaratadi. U tabiat tasvirlaridan foydalanish jarayonida jonlantirish san‘atidan ustalik bilan foydalanadi. Bu esa u yozgan asarlarning badiiy saviyasi bilan bir

qatorida o'qishligini ham orttiradi. Shuningdek, Faynberg ijodida shukronalik, kamtarona baxt, oddiylikdagi baxt falsafasi yaqqol sezilib turadi. U hashamatlarga boy hayotdan ko'ra oddiy, sokin, yulduzli kechalarda, xalqona hayotda rohat bor degan g'oyani ilgari suradi. Shoir nazarida haqiqiy baxt insonning o'z uyida oilasi davrasida o'tkazgan lahzalarida mujassam. Ana shunday qarash shoirning salmoqli she'rlarida, xususan, sharqona hovli, oqshom, paykal va yulduz tasvirlari bilan ifodalangan nafis she'rlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Faynberg o'z poetik olamida sharqona muhit bilan umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtiradi. Ushbu maqola Aleksandr Faynberg she'riyatining shunday nodir jihatlari o'z aksini topgan "Sharqona hovliga egilar hilol" misrasi bilan boshlanuvchi she'r tahliliga bag'ishlanadi.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinberg is a writer with a unique spirit and voice in 20th-century Uzbek literature. Despite his Russian nationality, he is considered a person who connected his entire life and creative path with Uzbekistan, becoming a child of this land both spiritually and morally. Feinberg not only served as a cultural bridge between the two peoples - the Uzbek and Russian peoples - but also created incomparably beautiful works by combining the subtle feelings inherent in the human heart with oriental spirit, national natural landscapes and philosophical views. His works have spread across countries and seas and throughout the world. Although the poet is no longer alive, thousands and millions of readers around the world who are fans of his work always remember him and read each of his works without stopping. The national landscapes presented in his poems and prose are also inextricably linked with the poet's works in those distant times. He has reached many countries and shared wonderful impressions of the Uzbek people with the whole world. One of the important features of Feinberg's work is the feeling of homeland and native place. He writes with special love about the sunny oases, vast fields, mountains and oriental courtyards of Uzbekistan. These landscapes show not only the image of nature, but also the inner world of man. He uses natural landscapes in his works as an artistic and symbolic weapon. These symbolic weapons, in turn, express the human mental state, the tranquility or suffering prevailing in the soul, in harmony with the external world. The poet pays special attention to the harmony between man and nature

in his work. He skillfully uses the art of animation in the process of using images of nature. This increases the readability of his works along with the artistic level. In addition, Feinberg's work is characterized by gratitude, modesty. The philosophy of happiness, happiness in simplicity, is clearly felt. He puts forward the idea that there is more pleasure in simple, quiet, starry nights, in a simple life than in a life full of luxuries. In the poet's view, true happiness is embodied in the moments a person spends in his own home with his family. Such a view is also clearly reflected in the poet's significant poems, especially in his elegant poems, which are expressed with images of an oriental courtyard, evening, a lake, and stars. Feinberg combines the oriental environment with universal human values in his poetic world. This article is devoted to the analysis of the poem, which begins with the line "The crescent bends to the oriental courtyard", in which such rare aspects of Alexander Feinberg's poetry are reflected.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг — писатель с уникальным духом и голосом в узбекской литературе XX века. Несмотря на русское гражданство, он считается человеком, связавшим всю свою жизнь и творческий путь с Узбекистаном, став дитяем этой земли как духовно, так и морально. Файнберг не только служил культурным мостом между двумя народами — узбекским и русским, — но и создал несравненно прекрасные произведения, сочетая тонкие чувства, присущие человеческому сердцу, с восточным духом, национальными природными пейзажами и философскими взглядами. Его произведения распространились по странам и морям, по всему миру. Хотя поэта уже нет в живых, тысячи и миллионы читателей по всему миру, поклонники его творчества, всегда помнят его и читают каждое его произведение без остановки. Национальные пейзажи, представленные в его стихах и прозе, также неразрывно связаны с творчеством поэта в те далекие времена. Он побывал во многих странах и поделился чудесными впечатлениями об узбекском народе со всем миром. Одной из важных особенностей творчества Файнберга является чувство родины и родного места. Он пишет с особой любовью о солнечных оазисах, бескрайних полях, горах и восточных двориках Узбекистана. Эти пейзажи показывают не только образ природы, но и внутренний мир человека. Он использует

природные ландшафты в своих произведениях как художественное и символическое оружие. Это символическое оружие, в свою очередь, выражает душевное состояние человека, спокойствие или страдание, царившие в душе, в гармонии с внешним миром. Поэт уделяет особое внимание гармонии между человеком и природой в своем творчестве. Он умело использует искусство анимации в процессе работы с образами природы. Это повышает читабельность его произведений наряду с художественным уровнем. Кроме того, творчество Файнберга характеризуется благодарностью, скромностью. В нем отчетливо ощущается философия счастья, счастья в простоте. Он выдвигает идею о том, что больше удовольствия доставляют простые, тихие, звездные ночи, простая жизнь, чем жизнь, полная роскоши. По мнению поэта, истинное счастье воплощается в моментах, проведенных человеком в собственном доме со своей семьей. Подобный взгляд отчетливо отражен и в значительных стихотворениях поэта, особенно в его изящных произведениях, выраженных образами восточного двора, вечера, озера и звезд. Файнберг сочетает восточную среду с универсальными человеческими ценностями в своем поэтическом мире. Данная статья посвящена анализу стихотворения, начинающегося со строки «Полумесяц склоняется к восточному двору», в котором отражены такие редкие черты поэзии Александра Файнберга.

Kalit so‘zlar: Aleksandr Arkadevich Faynberg, hayot falsafasi, tabiat va inson uyg‘unligi, sharqona hovli, milliy kolorit, voha manzarasi, mehnat va orom, shukronalik tuyg‘usi, yulduz ramzi, hilol obrazi, ruhiy poklanish, lirik qahramon, badiiy tasvir vositalari, jonlantirish san’ati, Vatan tuyg‘usi, sokin oqshom, ma’naviy qadriyatlar.

Keywords: Alexander Arkadyevich Feinberg, philosophy of life, harmony of nature and man, oriental courtyard, national color, oasis landscape, work and rest, feeling of gratitude, star symbol, crescent image, spiritual purification, lyrical hero, means of artistic depiction, art of animation, feeling of homeland, quiet evening, spiritual values.

Ключевые слова: Александр Аркадьевич Файнберг, философия жизни, гармония природы и человека, восточный двор, национальный колорит, пейзаж

оазиса, труд и отдых, чувство благодарности, символ звезды, изображение полумесяца, духовное очищение, лирический герой, средства художественного изображения, искусство анимации, чувство родины, тихий вечер, духовные ценности.

Aleksandr arkadevich Faynberg ijodida avval ta'kidlaganimizdek inson va tabiat uyg'unligi, hamnafasligi, Vatan manzarlari hamda sokinlik mavzusi o'ziga xos o'rin egallaydi. Shoir she'rlarida ko'pincha serquyosh go'shalar, keng dalalar, tog'li, yulduzli osmon tasviri orqali qalbning ichki olami, unda yshirin nozik tuyg'ularni yoritib beradi. "Sharqona hovliga egilar hilol" she'ri hamana shunday uslubdagi badiiy va ruhit izlanishlarning yorqin namunalaridan bo'lib, unda Sharqning eng go'zal diyorida hovli, chorbog', paykal, paxsa devor kabi milliy manzaralar vositasida insonning sodda, ammo teran baxt haqidagi tushunchasi ifodalanadi.

Sharqona hovliga egilar hilol,

Chorbog'dan taralar suhbat, sadolar.

Serquyosh vohada oqshom betimsol,

Tog'lardan esadi muzdek sabolar.

Chanqagan paykallar qonib ichar suv,

Dalalar pinakka ketar xotirjam.

Og'ushiga olib erkalar uyqu,

Yarim tun ko'zimni yumaman men ham.

Quvonch kam bo'lsa ham umrimda, ammo

Samolarga boqib quvnadi ko'zim.

Paxsa devor uzra menga doimo

Charaqlab termulib turdi yulduzim.

Qizg'in paykallardek suv ichay oqshom,

Muzdek buloqlarda cho'milsin yurak.

Ishchan dalalardek olayin orom,

Axir, bu dunyoda yana ne kerak?!

She'r boshidanoq shoir "Sharqona hovliga egilar hilol" misrasi orqali o'quvchini maftunkor manzarani tasavvur qilishga unday, ularni shu tasvir ichiga o'zi bilan olib kirib ketadi. Hilolning egilishi bu yerda osmon va yerning, ilohiylik va insoniylikning uyg'unlashuvi ramzidir. Chorbog'dan taralib turgan suhbat va sadolar esa hayot davom etib turganini, insonlar orasida iliq munosabat mavjudligini ko'rsatib turadi. Serquyosh vohada oqshomning "betimsol" deya ta'riflanishidan bu manzara o'zida faqatgina tabiiy go'zallikni emas, ma'naviy go'zallikni ham jamlab turganini anglashimiz mumkin. Tog'lardagi esayotgan muzdek sabo tasviriga ko'zi tushgan kitobxon bu muzdek yelni his qilibgina qolmay, tabiatning tetiklantiruvchi kuchi va pokligiga ham guvoh bo'ladi.

Keyingi misralarda ijodkor adabiyotning ajoyib uslublaridan bo'lmish jonlantirish uslubini qo'llab dalalar va paykallarni jonlantiradi. "Chanqagan paykallar qonib suv ichar" obrazi zamirida ham yer va insonlik uyg'unligini ko'rsatishga bo'lgan harakat yotadi. Paykal- mehnattimsoli, suv esa hayot manbai. Dalalarning "piknakka ketishi" esa kun davomida mehnat qilib tolgan tabiatning ham orom olgisi kelishini ko'rsatadi. Faynberg ham she'rda o'zini tabiatning bir bo'lagi sifatida ko'rsatadi: "Yarim tun ko'zimni yumaman men ham." Bu yerda inson va uni o'rab turgan borliq olam orasidagi to'siqlar yo'qoladi, lirik qahramon tabiat bilan bir butunlikka erishadi.

Asarning tayanch g'oyalaridan biri kichik quvonch bilan bo'lsa-da, baxtiyor umr kechirish falsafasidir. "Quvonch kam bo'lsa ham umrimda, ammo Samolarga boqib quvonadi ko'zim" satrlari lirik qahramon ichida mavj urayotgan ichki minnatdorchilik hissini ochib beradi. Hayot qiyinchiliklarga to'lgan, biroq osmon, yulduz, tabiat go'zalligi har qachon inson qalbiga taskin beraveradi. Paxsa devor ustida charaqlab turgan yulduz

tasviri umid ifodasi sanaladi.U doim “termulib turadi”,ya’nikim insonni tark etmay,unga yo’l ko’rsatib turadi.

So’nggi bandlarda shoir oqshomni suv ichgandek chanqoq his qilish,yurakni muzdek buloqlarda cho’mltirish,dalalarda mehnatdan so’ng orom olish tasvirlaridan foydalanish orqali o’z orzusi haqida o’quvchisiga so’zlaydi.Bu tasvirlarning bari ruhiy poklanish,ichki tiklanish mulohazalari ilgari suradi.”Axir,bu dunyoda ne kerak” degan savol esa she’rining falsafiy xulosasidir.Shoir uchun haqiqiy baxt tabiat qo’ynida,sokin va halollikda kechadigan hayotdir.

Xulosa qilib aytganda,Aleksandr Arkadevich Faynbergning ushbu she’ri insonning oddiy,pokiza orzulari,tabiat bilan inson hayoti hamohangligi va shukronalik tuyg’ulari bilan yo’g’irilgan.Shoir bu asari orqali o’quvchini hayotning eng kichik ne’matlarini ham chuqur qadrlashga da’vat etadi.Baxt osmondagi yulduzlari ko’ra olish,mehnatdan so’ng dam olish va ko’ngilni pokligicha saqlashdadir.Shu g’oya she’rning asosiy badiiy-mazmuniy mohiyatini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Alexander. F “Qoramaga qasida”. Tashkent- 2021
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
3. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
4. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
5. <https://aroblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
6. www.ziyouz.com — “Aleksandr Faynberg she’riy merosi” rukni ostidagi maqolalar to’plami